

INVESTITSIYAVIY SUDLAR TASHKIL ETISH – INVESTOR ISHONCHINI OQLASH KALITI

Shohruh Ochilov

Toshkent davlat yuridik universiteti

shoxruxochilov63@gmail.com

Abstract: Ushbu maqolada investitsiya nizolarini hal qilish bilan bog‘liq iqtisodiy huquqiy sohadagi dolzarb muammo ko‘rib chiqiladi. Jahon iqtisodiy munosabatlari va transchegaraviy sarmoyalarning o‘sishi, dunyo hamjamiyatida investitsion muhit keng qamrovli rivojlanishi bilan nizolarni samarali hal qilish uchun ixtisoslashgan sudlarni tashkil etish zarurati tug‘iladi. Maqolada investitsiya sudlarini joriy etish natijasida investitsiyalarni jalb qilish, nizolarni hal qilishni tezlashtirish, investorlar ishonchini oshirish va huquqiy qoidalarni standartlashtirish kabi afzallikkleri muhokama qilinadi. Investitsiya sudlarining ishga tushirilishi jahon iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanishini ta’minlashning dolzarb zarurati ekanini ta’kidlaydi.

Keywords: Investitsiya, soliq ma’murchiligi, investitsiya sudi.

Investitsiya bo 'lmasa, iqtisodiyot rivojlanmaydi. Investorlarga muhit, infratuzilma yaratsak, ish joyi bo 'ladi, mahsulot ko 'payadi, soliq tushadi. Korxonalarining o 'z mablag 'ini yana aylantirib, faoliyatini rivojlanterishga rag 'batlantirish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev

Bugun rivojlanayotgan mamlakatlarning katta qismi investorlarni jalg etish borasida turli xildagi muammolarni samarali tarzda hal etmoqda. Rivojlangan mamlakaltar tajribasiga ahamiyat qaratadigan bo 'lsak, mamlakatga investor jalg etishning bir qancha zamon talab etayotgan shartlari mavjud. Ular jumlasiga:

- xorojiy investor ishtirokidagi soliq to 'lovchilarga soliq imtiyozlarini yaratish;
- investorning mamlakatda erkin faoliyati uchun qulay bo 'lgan sodda huquqiy asoslar yaratish;
- xorojiy investor ishtirokidagi soliq to 'lovchilarga soliq ma'murchiligin yengillashtirish;
- investorning ishonchini yanada oshirish uchun investitsiya sudlarini tashkil etish.

Xo 'sh o 'zi umuman investor bizga nima uchun kerak?

O'zbekiston va dunyo iqtisodiyotining keljakdagi rivojlanishi, asosan, investitsiyalarga bog 'liqligini bugun deyarli har bir mutaxassis va xo 'jalik yurituvchi subyekt tushunganligini inobatga olsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni yanada ko 'proq jalg etish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta 'minlashda muhim mexanizmga aylandi. Shuningdek,

investitsion faoliyatda milliy-huquqiy kafolatlarning o'rni va ahamiyati hamda bugungi iqtisodiy globallashuv sharoitida zamanoviy investitsiya munosabatlariga mos huquqiy kafolatlar tizimini ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirish ham oldimizda turgan pirovard maqsadlardan biri hisoblanadi. Zero, biz mamlakatimizga dunyoning ko'zga ko'ringan investorlarini jalg etmoqchi bo'lar ekanmiz, birinchi navbatda xorij investitsiyalari kirib kelishi uchun qulay bo'lgan huquqiy kafolatlarni, ushbu sohani ichiga qamrab olgan normativ-huquqiy hujjatlar bazasini yanada investor uchun qulay sharoit yaratib beradigan miqyosga olib chiqishimiz zamon talabi ekanligini unutmasligimiz lozim. Mamlakatimizga qanchalik ko'p miqdorda investitsiya jalg eta olsak, fuqarolarning hayot tarzi ham farovonlashadi, bo'sh ish o'rinalarining yaratilishiga zamin yaratiladi.

Shu kunga qadar yurtimizda investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan bir qancha samarali islohotlar tashkil etildi. Davlatimiz rahbarining 2020 yil 24-iyulda qabul qilingan "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan huquqini amalda ta'minlash bilan bog'liq dolzarb muammolarga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas. 2021-yil 12-yanvarda "Sud qarorlarini qayta ko'rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Oliy sudda investitsiyaviy nizolar bo'yicha maxsus sudlov tarkibining tashkil etilishi, ushbu toifadagi ishlar bo'yicha alohida sudlovlilik qoidalarining belgilanishi investorlarning nizolarni hal qilish uchun turli sud instansiyalari o'rtasida sarson bo'lishining oldini oldi.

2022-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning an‘anaga aylangan har yili Oliy Majlisga yo’llaydigan murojaatnomasining 6-yo‘nalishi iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko‘paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilashga qaratilgani, iqtisodiyotimizga shu yilning o‘zida 8 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kirib kelgani, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetganini ta‘kidlagani¹, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Xorijiy investorlar kengashi tuzilganligi ham fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi.

Biroq, bugunngi kunda bu yo‘nalishda hali qiladigan ishlarimiz ko‘pligini ham unutmasligimiz lozim. Statistik ma’lumotlarga murojaat etadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasida so‘ngi uch yilda Iqtisodiy sudlar tomonidan 5 mingdan ortiq chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar bilan bog‘liq nizolar hal etilgan. Investorlar soni ko‘paygandan so‘ng shunga monand ravishda nizolar ham yildan yilga ortib boraveradi. Shu kunga qadar ko‘rilgan nizolarni sonda tasvirlaydigan bo‘lsak, iqtisodiy sudlarda 2017-yilda investitsiya faoliyati bilan bog‘liq 576 ta, 2018-yilda 609, 2019-yilda 647 ta nizolar 2023-yilga kelib esa bu son deyarli 2 baravar ortdi. Ushbu holat o‘z-o‘zidan Iqtisodiy sudlarda ish ko‘llamining ortib ketishiga hamda investorlarda nizo kelib chiqqanda nizoni hal etilishda vaqt cho‘zilishiga olib kelmoqda desak xato bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning eng muhim iqtisodiyotlaridan biri bo‘lganligi sababli, chet el investitsiyalarini jalb qilish va ularni himoya qilish muammosi oldida turibdi. Shu nuqtai nazardan, investitsiya sudlarining joriy etilishi mamlakatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish uchun muhim qadam bo‘lib ko‘rinadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2022 yil 20 dekabr <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

Birinchidan, O‘zbekiston o‘z iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirishga intilayotgan bir paytda investorlarga kelib chiqqan nizolarni hal etishning shaffof va samarali mexanizmlarini taklif qilishi kerak. Investitsiya sudlari xorijlik ishbilarmonlar uchun kafolat bo‘lib, ularning manfaatlari yuqori darajada himoya qilinishi amaliyotda ko‘ringanda ularda katta ishonch hosil bo‘lishiga zamin yaratilinadi.

Ikkinchidan, investitsion sudlar tufayli O‘zbekistonda investitsiya nizolarining tezkorlik bilan hal etilishini ta’minlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, investorlar uchun risklarni kamaytiradi va qulay investitsiya muhitini yaratadi, yangi kapital va texnologiyalarni jalg qilishga yordam beradi.

Uchinchidan, investitsion sudlar xorijiy investorlarning ishonchini oshirishga yordam beradi. Nizolarniadolatli va xolis hal etish kafolatlari investorlar hamjamiyatining e’tiborini tortadi va O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotida ishonchli hamkor sifatidagi nufuzini yanada mustahkamlaydi.

To‘rtinchidan, investitsion sudlarning joriy etilishi iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish bilan birga nizolarni tezroq hal etish va qulay sarmoyaviy muhitni yaratish sanoatning asosiy tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi ish o‘rnlari yaratish imkonini beradi.

Beshinchidan, investitsion sudlar, shuningdek, investitsiya sohasidagi huquqiy tartib-qoidalarni standartlashtirishga yordam berishi mumkin. Bu byurokratik yukni kamaytirish, jahon ishbilarmon doiralari bilan o‘zaro hamkorlikni osonlashtirish va xalqaro shartnomalar tuzish shartlarini soddalashtirishga yordam beradi.

Investitsiya sudlari O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish, investitsiyalarni jalg etish va himoya qilishni ta’minlash, shuningdek, barqaror

iqtisodiy o'sish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning muhim vositasiga aylanadi. Bunday tenglik mexanizmlarining joriy etilishi O'zbekistonning investitsiya muhiti va xalqaro hamkorlik sohasida yangi standart o'rnatishga sodiqligini ta'kidlaydi.

Bu jihatdan biz xorij tajribasini ham o'rganib, ulardan tegishli mos jihatlarini olishimiz mumkin bo'ladi. Faol global iqtisodiy munosabatlar dunyosida xorijiy mamlakatlarda investitsiya sudlari keng joriy etilib, nizolarni hal etishning samarali mexanizmlari taklif etilmoqda va investisiya muhiti barqarorligini ta'minlamoqda. Bu boradagi xorijiy tajribani o'rganish o'z iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga intilayotgan davlatlar uchun yaxshigina tajriba vazifasini o'tab berishi mumkin.

Singapur o'zining samaradorligi va shaffofligi bilan mashhur bo'lgan investitsion sud tizimini muvaffaqiyatli joriy qildi. Bu yerda sudlar sarmoyaviy nizolarni tezkorlik bilan ko'rib chiqadi, tomonlarga huquqiy jihatlar haqida aniq tasavvur beradi. Bu tajriba murakkab masalalarni tez va adolatli hal eta oladigan investitsiya sudlarini yaratishga intilayotgan boshqa davlatlar uchun ham namuna bo'la oladi.

Shvetsiya mamlakatida investitsiya sudlari tizimi sudyalarining yuqori malakasi va professionalligi bilan ajralib turadi. Bu yerda investitsiya sohasini chuqur biladigan ixtisoslashgan sudyalar murakkab masalalarni samarali hal etadi. Shvetsiyadan olingan saboq — investitsiya sudlarining samarali faoliyat yuritishi uchun malakali kadrlarni tayyorlash bilan ham boshqa tajribalardan ajralib turadi.

Germaniyada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va himoya qilish uchun investitsiya sudlaridan muvaffaqiyatli foydalanib kelinmoqda. Ushbu

mamlakatda muhim jihatlaridan biri shuki, investorlarni qo'llab-quvvatlash va ularning nizolarini hal qilishda ishonchli vositalar bilan ta'minlashdan iborat. Ushbu tajriba samarali investitsiya sudlari tomonidan iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun kuchli vosita bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Buyuk Britaniya davlatida huquqiy qoidalar va tartiblarni standartlashtirish uchun investitsion sud tizimini joriy etilgan bo'lib, bu investorlar bilan hamkorlikni osonlashtiradi, huquqiy noaniqlikni kamaytiradi va shaffof investitsiya muhitini yaratishga yordam beradi.

Investitsion sudlar sohasidagi xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bugun O'zbekiston dunyo mamlakatlariining e'tiborini jalb etayotgan bir paytda, investitsion nizolarni hal qilishning yangicha mexanizmlarini joriy qilish yoki kuchaytirish naqadar muxim ekanligini yana bir bor eslatadi. Samaradorlik, shaffoflik, yuqori darajadagi ekspertiza va investorlarni qo'llab-quvvatlash –tamoyillari barqaror va investitsion qulay rivojlanishga intilayotgan davrimizda investitsiya sudlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun asos bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti;
3. Q.Xidirov. “Xalq so’zi” gazetasi. T.27.04.2017 y;
4. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>;
5. https://www.soliqvahayot.uz/packet/maqolalar/Maqolalar_2023_3_soni.pdf
6. Якубова, М. (2022). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ СПОСОБОВ АЛЬТЕРНАТИВНОГО РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ В РАЗРЕШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ СПОРОВ. In ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЮРИСПРУДЕНЦИИ И ВОПРОСЫ ПРАВОПРИМЕНЕНИЯ (pp. 46-56).
7. Якубова, М. (2020). Применение альтернативных правовых методов разрешения инвестиционных споров в Республике Узбекистан. Общество и инновации, 1(2/S), 261-268.
8. ABDUMALIKOVNA, Y. M. Analyses of Adr in Investment Dispute Resolution. JournalNX, 7(02), 317-320.
9. Yakubova, M. (2023, December). Ответственность за кибератаки при разрешении онлайн-споров. In International Conference on Legal Sciences (Vol. 1, No. 9).
10. Yakubova, M. (2023, November). Инвестиции в зеленую экономику: правовое регулирование. In International Conference on Legal Sciences (Vol. 1, No. 8, pp. 19-31).
11. Yakubova, M. (2023, October). Правовой переход в законодательную базу по инвестициям в зеленую экономику. In International Conference on Legal Sciences (Vol. 1, No. 7).

12. Yakubova, M. (2021). APPLICATION OF ALTERNATIVE METHODS OF INVESTMENT DISPUTE RESOLUTION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: APPLICATION OF ALTERNATIVE METHODS OF INVESTMENT DISPUTE RESOLUTION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. TSUL Legal Report International electronic scientific journal, 2(1), 94-100.